

## UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AHAMIYATI VA MOHIYATI

**Baxromova Laylo Rayim qizi**

Toshkent davlat yuridik

universiteti talabasi,

+998 941891807,

[laylorayimovna@gmail.com](mailto:laylorayimovna@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida mamlakatimizda yoshlar siyosatiga oid qonun hujjatlari tahlil qilingan bo‘lib, bugungi kunda qonunchiligimizda yoshlarga yaratilgan ulkan imkoniyatlar yoritilgan. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yoshlar tarbiyasi va yorqin istiqbolidagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada yoshlarni O‘zbekistonning zamonaviy yangi avlod kadrlari sifatida shakllantirish, har bir soha bo‘yicha bilim, malaka va yuqori kasbiy ko‘nikmaga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadr sifatida xalqaro maydonga chiqishi davlatimiz tomondan qo‘llab-quvvatlanayotgani o‘rin olgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshlar, siyosat, taraqqiyot strategiyasi, el-yurt umidi, uchinchi renessans, professional ta’lim, inkyuziv dastur.

**Abstract:** In this research work, legislation on youth policy in our country has been analyzed, and the great opportunities created for young people in our legislation, today, have been highlighted. The importance of raising the legal culture in the society in the education and bright prospects of the youth has been revealed. This article also states that the formation of young people as modern new generation personnel of Uzbekistan, competitive personnel with knowledge, skills and high professional skills in every field is supported by our government.

**Key words:** youth, politics, development strategy, country's hope, third renaissance, professional education, inclusive program.

**Аннотация:** В данной исследовательской работе проанализировано законодательство о молодежной политике в нашей стране, а также отмечены большие возможности, созданные для молодежи в нашем законодательстве сегодня. Выявлена важность повышения правовой культуры в обществе в образовании и перспективах молодежи. В данной статье также указано, что

формирование молодежи как современных кадров нового поколения Узбекистана, конкурентоспособных кадров, обладающих знаниями, умениями и высокими профессиональными навыками во всех сферах, поддерживается нашим государством.

**Ключевые слова:** молодежь, политика, стратегия развития, надежда страны, третий ренессанс, профессиональное образование, инклюзивная программа.

Markaziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O‘zbekiston nafaqat tarix va madaniyatga boy o‘lka, balki ijobiy o‘zgarishlar bilan rivojlanayotgan davlat hamdir. Mamlakatimiz dunyoga o‘z eshiklarini ochar ekan, bir ajoyib tendentsiya namoyon bo‘lmoqda - siyosatda yoshlarning ta'siri kuchaymoqda. Bugun O‘zbekiston yoshlari siyosiy maydonda o‘z g‘oyalari, g‘ayrati va ishtiyoqi bilan faol hissa qo‘shmoqda. Yoshlar o‘rtasida mamlakat kelajagiga bo‘lgan bu ishtiyoq nafaqat tahsinga sazovor, balki mamlakat va butun dunyoning porloq kelajagini shakllantirish uchun ham muhim ahamiyatga ega. Dunyo aholisining 20 foizini yoshlar tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatgich 60 foizdan oshadi.

Hozirgi kunga qadar parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ortiq qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Milliy qonunchiligimizda, yoshlarning huquqlari va erkinliklari bilan bir qatorda siyosiy huquqlari ham mustahkamlab qo‘yilgan, masalan, yoshlar 18 yoshdan boshlab saylash, 21 yoshda mahalliy kengashlarga, 25 yoshda esa Oliy Majlis palatalariga saylanish huquqiga ega.

2017-yil 5-iyulda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. 2019-yilda Qonunchilik palatasiga o‘tkazilgan saylovlarda 7 million 162 ming 316 nafari ya’ni 34 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etgan. 2 millionga yaqin 18 yoshga to‘lgan fuqaro esa saylovlarda ilk bor ishtirok etgan. 30 yoshgacha bo‘lgan 14 nafar yigit-qizlar esa siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod sifatida ko‘rsatildi. Ulardan 9 nafari esa deputat etib saylandi. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar hamda Toshkent shahar Kengashlariga

26 nafar, xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlariga 291 nafar yigit-qiz deputat etib saylandi.

Mamlakatimiz rahbari tomonidan yoshlarga bo‘lgan yuksak e‘tiborni 2021-yil “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”, 2023-yil “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”, 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” kabi yillarning nomlanishida ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Qolaversa, mamlakatimiz rahbari tomonidan “Inson qadri uchun” tamoyili asosida ishlab chiqilgan, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi”ning bir qancha maqsadlarida, jumladan, 2026-yilga qadar oliy ta‘limga qabul ko‘rsatkichini kamida 250 mingga yetkazish (46-maqsad), “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygohlarga o‘qishga yuborish ko‘lamini 2 baravarga oshirish (50-maqsad), yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish (70-maqsad), “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash (71-maqsad) kabilarda yoshlarni har tomonlama rivojlantirish ustuvor maqsadlar sifatida belgilangan hamda shu kungacha amaliy ifodasini topib kelmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston o‘z ta‘lim tizimida, xususan, yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga e‘tibor qaratilayotganda o‘zgarishlar sari qadam tashladi. Mamlakatimizda ta‘lim olish imkoniyatlari, ta‘lim sifati va yoshlarning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiluvchi qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. Xususan, 2017-yilda Maktabgacha ta‘lim vazirligi tashkil etildi hamda oilaviy maktabgacha ta‘lim muassasalarining soni ortishi chekka hududlarda ham kam ta‘minlangan oilalar farzandlarini ushbu bosqichga faol jalb qilishga erishildi. O‘zbekistonda oxirgi yetti yilda maktabgacha ta‘lim bo‘yicha qamrov darajasi 27 foizdan 72 foizga oshdi. Shuningdek, qisqa muddatli, yangi mobil “Aqlvoy” maktabgacha ta‘lim guruhlari 2021-yildan boshlab ishga tushurildi. Mobil guruhlarning tarbiyachilari qo‘shimcha malaka oshirish kurslarida, jumladan, birinchi yordam ko‘rsatish bo‘yicha ham o‘qitiladi.

Maktab o‘quvchilari uchun 1–4-sinflarni “ilg‘or xorijiy tajriba” asosida ishlab chiqilgan darsliklar va 5–11 sinflar uchun esa “STEAM fanlari darsliklarini ixtisoslashgan ta‘lim muassasalari darsliklari va o‘quv-metodik majmualari asosida, shu jumladan xorijiy tajribani inobatga olgan holda joriy etish maqsadida maktab

o‘qituvchilari, metodistlar, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari bilan bir qatorda BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) va AQShning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) ekspertlari jalb etilgan.

2019-yildan boshlab ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o‘qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma’naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta’minlash maqsadida prezident maktablari joriy etildi. Albatta, maktab bitiruvchilari erishgan yutuqlar hayratlanarli darajada. Jumladan, so‘nggi yillardagi bitiruvchilarning barchasi xalqaro til bilish sertifikatini qo‘lga kiritdi. Nafaqat o‘zbek yoshlari balki butun dunyo yoshlari o‘qishni havas qiladigan jahon reytinglari 7-da o‘rinda turuvchi “Harward” hamda “Princeton” universitetlariga 100 foizlik grantni qo‘lga kiritganligi tahsinga sazovordir.

Shu o‘rinda O‘zbekiston tarixida qabul qilingan eng muhim “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi qonun ham avvalo yoshlarga bo‘lgan e’tiborning mahsulidir, Negaki, pedagog xodimni lavozim majburiyati va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, yig‘ilishlar va boshqa tadbirlarga jalb qilish taqiqlanadi endi o‘qituvchilar o‘z vazifasini samarali amalga oshiradi.

Ta’lim tizimidagi yoshlar uchun yana bir muhim islohot professional ta’lim turi va bitiruvchilarga oliy ta’limga kirishdagi katta imtiyozlarni alohida ta’kidlash lozim hisoblanadi. Qolaversa, so‘nggi yeti yilda oliy ta’lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetdi. OTMlarda o‘qitishning xorijiy mamlakatlarda bir muncha rivojlangan kredit modul tizimi, innovatsion texnologiyalari joriy etilishi ham ta’lim sifatini yaxshiladi. Shuningdek, xalqaro akademik-talabalar almashinuv dasturi asosida ko‘plab yoshlarimiz davlatimiz qo‘llab-quvvatlashi bilan chel-elda tahsil olmoqda.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, xorijda ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste’dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish maqsadida yetakchi xorijiy ta’lim muassasalarida o‘qitishni maqsad qilgan “El-yurt umidi” jamg‘armasi har yili yoshlarni dunyoning Top 100 reytingidan o‘rin olgan universitetlarida ta’limning bakalvriat va magistratura yo‘nalishlarida o‘qib kelishlari uchun moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. Buna yorqin misol sifatida maktab bitiruvchisi Gulbahor Nortojoyeva Amerikaning George Meyson universitetida o‘qish uchun "El-yurt umidi" jamg‘armasi tomonidan yiliga 37 000 dollar, Erkinjon Umarov esa Amerikaning University of Arizona

universitetida tahsil olish uchun 22 000 dollar grant yutib olganlarini keltirish mumkin.

Strategik tashabbuslar, inklyuziv dasturlar va maqsadli investitsiyalar orqali O‘zbekiston o‘z yosh avlodini gullab-yashnashi, innovatsiyalar yaratish va xalqni porloq kelajak sari yetaklash imkonini yaratmoqda. O‘zbekiston o‘zining islohotlar yo‘lida davom etar ekan, yoshlarga oid siyosat tashabbuslari natijasida yuzaga kelgan jadallikni davom ettirish va mustahkamlash zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun / <https://lex.uz/docs/3026246>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev BMTning 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlari forumidagi ma‘ruzasi // [https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi\\_197662](https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662)
4. Juraev S.A. Osobennosti formirovaniya gosudarstvennoy molodejnoj politiki Respubliki Uzbekistan V perexodniy period: teoriya i praktika. A-r.diss...dok.politol.n..-T., 1994. -S.17.
5. Yusupova N.J. Islomda ayol huquqlari. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi, 2006
6. “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

Research Science and  
Innovation House